



OLTIN MISRALARGA NAQSHLANGAN QALB

Mamajonova Malikaxon Abdullo qizi

*Toshkent to ‘qimachilik va yengil sanoat instituti 3- bosqich 16-22 guruh
talabasi Orcid:0009-0006-21466493*

Annotatsiya: Dunyodagi buyuk shoir olimlardan biri Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekdir. Adib Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybekning boy adabiy ijodini amalga oshirgan ishlarini o‘rganuvchi tadqiqodchilar judayam ko‘p. Biz esa uning “Oltin misralarga naqshlangan qalb” davri haqida fikir yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Oltin misralar, dunyo, shoir, adib, buyuk.

Аннотация: Одним из величайших поэтов и учёных мира является Ойбек, сын Мусы Таимухаммада. Многие исследователи изучают творчество сына писателя Мусы Таимухаммеда Айбека. И мы подумаем о его периоде “Сердце, украшенном золотыми стихами”.

Ключевые слова: Золотые стихи, мир, поэт, писатель, великий.

Annotation: One of the world's greatest poets and scholars is Oybek, the son of Musa Tashmuhammad. There are many researchers who study the works of the writer Musa Tashmuhammad's son Aibek. And we will think about his period of “A heart emblazoned with golden verses”.

Key words: Golden verses, world, poet, writer, great.

Oybek adabiy faoliyatining muhim qismini adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarni tashkil etadi. O‘zbek xalqi tarixi va o‘zbek mumtoz adabiyotining ulkan bilimdoni Oybekdir. **“Oybekdek ulug‘ adib va ulug‘ insonga nibatan hurmat va muhabbat”** tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. Oybekdan tashqari, yana bir asosiy qahramon bor. U butun hayotini Oybekka bag‘ishlagan, uning mashaqqatli qismatini yengillashtirishga intilgan, unga munosib yor bo‘lgan Zarifa Saidnosirova kimyogar olim. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi professor. Kimyo fanlari nomzodi. Birinchi o‘zbek ayol rassomi. Taniqli ma’rifatparvar S. Mirjalilovning qizi



Oybekning rafiqasidir. Oybekning shaxsiy hayotigina emas, balki bir-biriga munosib ikki ulug' siyemoning asarlarida sevgi va vafo ular boshidan o'tkazgan qiyinchiliklardan katta chandiq qoladi. Oybekning asarlari juda ko'p tillarga tarjima qilingan.

Har bir davrning unutilmas va buyuk siymolari bo'ladi. Ular she'riyat va adabiyotda o'chmas iz qoldirishgan. Lekin ularni hayoti va ijodini yoritish yoki yozish hamma yozuvchini qo'lidan kelavermaydi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyni hayoti va ijod yo'lini yozish baxti faqat Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekka nasib qildi desak bo'ladi. Alisher Navoiydan keyin o'zbek she'riyatidan Oybek o'zini komil insonligi, beqiyos asarlari va durdona namunalari bilan alohida joy oldi. Oybekni bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, u nurli va barhayot o'zbek siyemosidir. Odatda biron nimaga erishish uchun asta, bosqichma-bosqich qadam bilan harakat qilamiz. Xuddi shunday yozuvchilar ham o'z she'riyat dunyosini yaratayotganida o'zi kezgan vohayu-vodiylar, qadrdonon maskanlar, do'stubirodarlar hamda o'zi guvoh bo'lgan voqealar haqida yozadi, ijod qiladi va asta sekinlik bilan adabiyotga kirib keladi. Shunga misol tariqasida quyidagi jumlanı ko'rishimiz mumkin. "Navoiy she'riyati va Navoiy obrazi hamisha kuchli bir quyosh kabi ko'nglimni tortar edi. O'z asarlarimda shoir Navoiy obrazi yaratishga zo'r mayl, orzu, istagim bor edi. Lekin tarixga ko'z tashlasam, Navoiy ulug', buyuk bir siymo holida qarshimda turar edi. Yoshligimdan beri Navoiyning o'lmas, abadiy she'rlarini sevib o'qir edim, uning jozibali g'azallari borgan sari ko'nglimga singib bordi, shakl va mazmunlari yuragimni mast va maftun etdi", deya "Navoiy" romanini yozishga bo'lgan ishtiyoyqini ochiqlagan edi ustoz Oybek.

Bilamizki, eng katta daryolar ham dastavval tog'lardan, guldirab tushuvchi arg'amchidek ingichka jilg'alardan boshlanadi. Daryoning biz ko'rgan qudratli oqimida o'sha jilg'alardan har birining o'ziga yarasha ulushi bo'ladi. Oybekning keyinchalik yozgan yirik nasriy asarlari 1940-yil "Qutlug' qon", 1944-yil "Navoiy", 1958-yil "Quyosh qoraymas" singari romanlarining xamirturushi ham kichik-kichik hikoyalar bo'lgan. Ular sirasiga kiruvchi "Fanorchi ota", "Musicha" "Singan umid" va "Gulnor opa" kabi hikoyalarni kiritish mumkin. Shunisi muhimki, bu asarlarning



aksariyat qahramonlari keyin ham yozuvchi o‘y-fikrida yashashni davom ettirdi, ijodiy o‘sib bordi. Ma’lum vaqt o‘tib esa yuqorida sanaganimiz yirik romanlarda to‘laqonli qahramonlar bo‘lib maydonga chiqishdi.

Asar yozish mas’uliyatini uning “quyosh qoraymas” romanı ustida olib borgan ishlarida ham kuzatamiz. Z.Saidnosirova “oybegim mening” kitobining “bektemir izidan” degan qismida adibning o‘zbek jangchilari hayotidan asar yozish maqsadida frontga ketganini, urush dahshatini, u keltirgan vayronagarchiliklarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligini, taassurotlari esa she’r va xotiralardan iborat “olovli yillar” she’riy to‘plami va “front bo‘ylab” kundalik daftarida aks etganini qayd etgan va quyidagilarni yozgan: “agar front bo‘ylab” kundaligini varaqlab chiqqan bo‘lsangiz, uning bo‘lajak qahramonlari bilan moskva ostonalarida tanishganligi, ularning jangovar hayoti to‘g‘risida muayyan tasavvurga ega bo‘lganligini bilasiz. shu qahramonlar orasida “quyosh qoraymas” romanidagi bektemir obraziga bo‘lgan o‘zbek jangchilari ham bo‘lganligi shubhasiz. Ehtimol, Oybek Ikromjon Toshmatovdan ham bektemir obrazi uchun nimanidir olgandir”. “Navoiy” va “quyosh qoraymas” romanlari bilan bog‘liq ayrim detallarni eslashdan maqsad shuki, oybek badiiy ijodga g‘oyatda mas’uliyatli vazifa sifatida qaragan. Ijod jarayonida uning o‘ziga xos uslubining shakllanishiga sabab bo‘lgan omillardan biri ham shu deb aytsak xato qilmaymiz. Avvalambor shuni qayd etamizki, Oybekning tasvir uslubidagi batafsillik, har bir voqeani, detalni ipidan ignasigacha erinmasdan, barcha jihatlarini e’tibordan qochirmagan holda badiiy idrok etish va qog‘ozga tushirish mahorati “Quyosh qoraymas”da ham o‘z ifodasini topgan. Roman shu darajada tasviri vositalarga boyki, kitobxon jang tasvirini butun tafsiloti va dahshati bilan tasavvur qiladi. Ayni paytda, bu tasavvurlar shunchaki oddiy tasavvur emas, balki badiiy mushohada mahsuli ekanligini, bu esa adibning badiiy tafakkur ko‘laming naqadar keng bo‘lganligini his etib, kitobxonning hayratlanmasdan iloji bo‘lmaydi.

“Navoiy” romani o‘zining badiiy - estetik qiymati, mazmun- mohiyati, badiiy-tasviri vositalarga limmo-limligi, voqealarning izchilligi, tarixiy haqiqatning ko‘zgusi bo‘la olganligi, qahramonlarning bir- biri bilan, yani to‘qima va tarixiy obrazlarning uyg‘unlashganligi bilan ham yuksak tahsin va e’tiroflarga loyiq asardir.



Shu bois ham bu asr mana necha yillarki, o‘z qadr - qimmatini yo‘qotgan emas, yo‘qotmaydi ham. Chunki chinakam badiiy san’at asari hech qachon o‘lmaydi. Bunday asarlarni xalq unutmaydi. Oybekning o‘zbek mumtoz adabiyotida yorqin siymo, ulug‘ mutafakkir sanalgan Navoiy obrazini go‘zal tasvirlab bera olgan bu romani mangu yashayveradi.

Agar 1968-yilda o‘limning sovuq qo‘llari Oybekni o‘z bag‘riga tortmaganiga, u Amir Temur va Bobur haqidagi ikki dostonini tugatib, yuragidagi azaliy orzusi “Amir Temur” romanini ham yozishga kirishgan bo‘lardi. Afsuslar bo‘lsinki, ulug‘ ijodkorga ajratilgan umr bu orzularini amalga oshirishiga yo‘l bermadi. Ammo shunga qaramasdan, Oybek o‘zining betakror asarlari bilan o‘zbek she’riyatining buyuk siyemosidir. Oybek nafaqat ijodkor sifatidagina, balki odam sifatida ham atrofagilarning mehr-u hurmatini qozongan, ularning yuragidan chuqur joy olgan shaxs.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi asarlari O‘zbek adabiyotining jahonlararo shuhratini yanada oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod makoniga aylandi. Bir so‘z bilan aytganda, Oybek adabiyotimiz xazinasini o‘zining juda ko‘p asarlari bilan boyitgan zahmatkash yozuvchi hisoblanadi. Yozuvchining ijodiy me’rosi 20 jildni tashkil etishi ham buning yorqin dalilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qo‘shjonov M. Oybek mahorati. –T. Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965
2. Sobirov O. Oybek ijodida folklor. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. - Toshkent, 1975.
3. Zunnunov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T. O‘qituvchi, 1992.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T. Xalq merosi, 2004.
5. Yoqubov H. Oybek (adabiy tanqidiy ocherk). –T. O‘zadabiynashr, 1950
6. <https://tafakkur.net/muso-toshmuhammad-ogli-oybek.haqida>